

AJDODLARIMIZNING IBRATLI HAYOT YO'LI

Shamudinova Feruza Mirxamitovna

O'zbekiston Respublikasi Toshkent ISFT institut M-24 pedagogika -01 magistranti

fshamudinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15573147>

Annotatsiya. XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg'onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyl bo'lib, shu davrda o'zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg'onishida muhim rol o'ynadi. Yurtimizda birinchilar qatori yangicha ta'limg metodiga asoslangan jadid maktabalarini ochdi. Behbudiyl Turkistonning kelajagi onalar qo'lida ekanligi, ularning savodli bo'lmos'i lozimligi, yosh avlod onalar qo'lida tarbiya topishi haqidagi fikrlari ham tafsinga loyiq. Ijodkor "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini tashkil etib, milliy jurnalistika rivojiga tamal toshini qo'yganlardan biri bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudiyl pedagogik asarlarida ota-onalar mas'uliyati, farzandlar tarbiyasi, burch masalalari Qur'oni Karim va Hadisi Sharif singari muqaddas manbalar ko'rsatmalariga suyangan holda e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: "Xamsa", "Boburnoma", "usuli savtiya", "Behbudiya", muftiy, "Tahsil oyi", "Samarqand" gazetasi, "Oyna" jurnali, teatr, "Padarkush" dramasi, dorilfunun, dorilmuallim, "Turon" gazetasi, "olimi zamonaviy", maorif, Xorazmiy, Samarqandiy, Farg'oniy, Buxoriy.

Kirish

Bu azim daraxtning ildizi shu qadar mustahkamki, bunda Alisher Navoiy "Xamsa" yaratib, g'azal mulkinining sultonini bo'ldi, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asari ila turkiy xalqlar tarixidan so'zladi, Lutfiy o'z g'azallari orqali millatni ezgulikka chorladi. Biz shunday zaminda tug'ilidik, voyaga yetdik. Tariximiz, nasl-nasabimiz turkiy xalqlarga borib taqaladi. Azal-azaldan qon-qonimizga singgan, ajdodlarimizga xos bolgan jasorat, ilm - ma'rifatga intiluvchanlik singari fazilatlar ila shakllandik. Ota - bobolarim to'g'risida qalbimda iftixor bilan gapirar ekanman, ular orasida dramaturg, noshir, "usuli savtiya" jadid maktabining asoschisi, mohir pedagog, ko'plab darsliklar muallifi, "Behbudiya" kutubxonasi tashkilotchisi, jahongashta olim hisoblangan Mahmudxo'ja Behbudiyl nomi alohida e'tirofga sazovor. Jadid namoyondasi 1857-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga keldi. U o'ziga to'q va ilmlı oilada ulg'aydi. Shu sababli ham butun umrini ma'rifat va ilmga bag'ishlay old, o'z davrining haqiqiy ziyolisi, millatning chinakam fidoyisi bo'ldi. XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg'onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo'lib, shu davrda o'zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg'onishida muhim rol o'ynadi. O'sha paytlarda maorifda islohotlar qilish, yangi maktablar yaratish, darsliklar yozib, uni joriy qilish nihoyatda mushkul ish edi. Ammo Behbudiyl xalqni yoppasiga ilmlı qilish maqsadidan qaytmadi va ta'limg tizimi uchun juda ko'p yangiliklar yaratdi.

Mahmudxo'ja Behbudiyl xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'aliasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobidir. U milliy ozodlik harakatining namoyondasi sifatida xalqimizni mustabid tuzum kirdikorlaridan ogoh etishga, ong-u tafakkurini yuksaltirish, hurriyatga erishish yo'lida jipslashtirishga intildi. Yurtimizda birinchilar qatori yangicha ta'limg metodiga asoslangan jadid maktabalarini ochdi.

Uning maorifni, ta'lim- tarbiyani rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan maqolalari orasida "Tahsil oyi" maqolasini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Bu maqola shunisi bilan ahamiyatliki, muallif o'sha davrdagi Turkistonning ahvolini ko'rsatibgina qolmay, balki qoloqlikning sabablarini aniqlaydi, undan qutulmoq yo'lini ochiq-oydin ko'rsatadi. Maqolada shunday yozilgan: "Ko'chaga razm solgan kishi ikki xil odamlarni ko'radi. Birisi oppoq ko'yaklar kiyib yasanib olgan, qo'llarida o'nlab nusxa kitoblar ko'tarib, saodatlik yurish bilan hukumat maktablariga ketayotgan rus, yahudiy, armani bolalar bo'lsa, ikkinchisi ertalabdan ustlarida og'ir yuk, qo'llarida ketmon, korxona va qadoqxonalarga hammomlikka yo'llanib, 20 tiyindan 1 so'mgacha topmoq ilinjidagi Turkiston bolalari " Ijodkor butun ilm-u hunar o'zgalar qo'lida ekanligi, bizlarning ikki yo'limiz borligi, ya'ni ularga o'xshab zamon ilmlarini o'zlashtirib, qoloqlikdan qutulish yoki pulimizni maraka, to'y va turli behudaliklarga sarf etib, borimizni qo'ldan boy berib, ularga xizmatkor bo'lish kabi o'y-xayollar bilan mulohaza yuritadi. G'oyatda qaltis vaziyatlarga qaramay, u o'z uyida maktab olib, o'z mablag'i hisobidan xalq farzandlarini o'qitdi. Behbudiy, eng avvalo, din ilmiga va dunyoviy ilmlarga qalbida chin muhabbat sezgan musulmon bolalarini faqir va qashshoqlarning bolasi bo'lsa-da, o'qitmoqqa bel bog'ladi. Eski maktablarning o'sha kezlardagi ahvoldidan qayg'urgan ma'rifatparvar o'z maktablari uchun yangi darsliklar yaratdi. U vaqtarda faqat o'g'il ta'lim olar, qizlarga esa cheklovlar ko'p edi. Behbudiy Turkistonning kelajagi onalar qo'lida ekanligi, ularning savodli bo'lmog'i lozimligi, yosh avlod onalar qo'lida tarbiya topishi haqidagi fikrlari ham tahsinga loyiq. Zeroki, har bir mo'min va muslimalarning ilm olmoqqa intilishlari ham qarz, ham farz ekanligi Hadisi Sharifda ham keltirib o'tilgan. Ma'rifatparvar xotin - qizlar savod chiqarish uchun otinoyilar tomonidan tashkil qilingan uy maktablarida emas, dorilfunun, dorilmuallimlarda o'qishga haqli, deb hisoblagan. Maktab — millat nuri, bu nur so'nsa, millat zulmat, jaholat iskanjasida qoladi.

Ijodkor "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini tashkil etib, milliy jurnalistika rivojiga tamal toshini qo'yanlardan biri bo'ldi. Drama va hikoyalari, dolzarb mavzulardagi maqolalari bilan ma'naviy uyg'oq, vatanparvar avlodni tarbiyalashga, xalqimizni dunyo bilan tanishtirishga, ilm-ma'rifatli, zamon bilan hamnafas va hamqadam qilishga hissa qo'shdi. Bugun ham insonlarni jaholatdan, turli illatlardan ogoh etishda ulug' alloma g'oyalari, hayotiy shiorlari, ilmiy adabiy merosi ham muhimdir. Mohir publisist sifatida o'z davrining dolzarb masalalariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va 200 dan ortiq maqolalar yaratdi. U 1913-yildan boshlab matbuot ishlari bilan shug'ullana boshlagan. "Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqi, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqla, til masalasi muharrirning hamisha diqqat markazida turdi. U millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Jurnalning 1913-yil 13-avgust birinchi sonidayoq "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola bilan chiqqan edi. Behbudiy ma'rifat uchun bиргина maktab kifoya qilmasligi, zamon va dunyo voqealari bilan muntazam tanishib bormoq kerakligi, millat va Vatanning ahvoldidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq lozimligi, millat uchun oyna kerakligini juda ko'p bor ta'kidlaydi.

Teatr — bu sahna san'ati turi bo'lib, aktyorlar tomoshabinlar oldida jonli ijroda namoyish qiladigan dramatik asarlarni ifodalash san'atidir. Behbudiy teatrni xalqni ma'rifatga chorlovchi kuch, faqat ko'ngilochar san'at emas, balki jamiyatni o'zgartirish vositasi sifatida ko'rgan va birinchi o'zbek dramasi "Padarkush"ni yaratgan.

Ushbu drama 1911-yilda yozilgan bo'lib, dastlab 1912-yilda "Turon" gazetasida boshilgan. Shundan so'ng tez fursatda Samarqand, Buxoro, Toshkent teatr sahnalarida ijro etilgan.

Drama kompozitsion qurilishga ko'ra oddiy bo'lgan holda mazmun g'oya jihatdan ancha qamrovlidir. Asarda o'qimagan bolaning nafaqat o'z umriga zomin bo'lishi, balki birovga zahmat yetkazishi tasvirlangan. O'g'il savodsiz, ma'naviy qashshoq, shafqatsiz bo'lib o'sadi va oxir-oqibat o'z otasining qotiliga aylanadi. Ilm va hunarsiz millatning millatning ahvoli kundan kunga xor bo'lishi, yer va mulksiz qolishi oqibatida axloqi buzilishi, dini zaiflashishini tushuntiradi. Buning uchun "olimi zamonaviy"larni tayyorlash, buning uchun mablag'ni ayamasdan, yoshlarning savodini chiqarib, rivojlangan davlatlarda o'qitish zarurligini ta'kidlaydi.

Xulosa

Mahmudxo'ja Behbudiy pedagogik asarlarida ota-onalar mas'uliyati, farzandlar tarbiyasi, burch masalalari Qur'oni Karim va Hadisi Sharif singari muqaddas manbalar ko'rsatmalariga suyangan holda e'tirof etiladi. Inson tarbiyasidagi qabih va yomon odatlar qoralanadi. O'z qarashlari, orzu- intilishlari va e'tiqodi bilan xalqning istiqboli, ozod va farovon hayoti haqida o'ylagan Behbudiy o'zining qisqa umri mobaynida juda uzun, sermashaqqat yo'lni bosib o'tdi.

Bosib o'tdigina emas, unda o'limlar bilan o'lmaydigan yorqin iz qoldirdi. U tinimsiz ta'qiblar, tazyiqlar tufayli umrini tugab qolganini sezgach, do'stlari, shogirdlari va farzandlariga vasiyatnomma yozadi. Unda shunday so'zlar bor edi: "Maorif yo'lida ishlayturg'on muallimlarni boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! Xalq qonida avloddan avlodga o'tib kelayotgan fazilatlar qatorida, afsuski, illatlar ham yashamoqda. Bu haqiqatni jadidlarimiz o'z vaqtida millat tanazzulining asosiy sabablaridan biri sifatida ko'ra bilgan edilar.

Shu jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy ham yozgan asarlari, darsliklari, maqolalarida tarixda o'tgan yurt olim-u fuzalolari — Xorazmiy, Samarqandiy, Farg'oniy va Buxoriylarning fazilatlaridan faxrlanadi. Ajdodlarimiz umr yo'li bizlarga ibratdir.

Tildan tilga ko'char barhayot nomi,
Temir otayotir bugun avlod.
O'lmas bitiklari — umrin davomi,
Dillarda abadiy Behbudiy yodi.

REFERENCES

1. Турдиева К. III. Актуальность и значение переводной детской литературы //Труды ГПНТБ СО РАН. – 2022. – №. 1. – С. 72-76.
2. Масайдова Ф., Турдиева К. Қамчибек кенжанинг “балиқ ови” ҳикоясининг ғоявий хусусияти //Перспективы развития медицины. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 643-644.
3. Sheralievna T. K. " Fine literature and medicine" science moduline in the medical direction of the study guides." //Journal of Innovation, Creativity and Art. – 2023. – С. 278-281.
4. Абдуллаева Л., Турдиева К. Стивен Кингнинг “Чекишини ташланг корпорацияси” ҳикоясида соғлом турмуш тарзи мавзуси //Перспективы развития медицины. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 602-603.
5. Турдиева К. III. Круг детского чтения поэтических произведений А. Арипова //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 10. – С. 430-438.

6. Турдиева К. Ш. Круг детского чтения поэтических произведений А. Арипова //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 10. – С. 430-438.
7. Турдиева К. Ш. ИРАВСТВЕННЫЙ АСПЕКТ ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ АНВАРА АБИДЖАНА //Бюллетень науки и практики. – 2023. – Т. 9. – №. 5. – С. 667-671.
8. Турдиева К. Ш. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ШАЙТАНАТ»(“ЦАРСТВО БЕСОВ”) //MEDICAL SCIENCES. – Т. 34.
9. Турдиева К. Тиббиёт институтларида бадиий-ижодий тўгаракларнинг самарадорлиги //Педиатрия. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 280-285.
10. Tuğlacı G, Solmaz E. Özbek çocuk edebiyatında şiir //Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi. – 2021. – №. 52. – С. 359-384.
11. Турдиева К. О современной узбекской детской поэзии последних лет //Язык. Словесность. Культура. – 2015. – №. 2. – С. 61-75.
12. Turdieva K. S. ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ //Theoretical & Applied Science. – 2017. – №. 10. – С. 66-69.
13. Turdieva K. ABOUT CHILDREN'S LITERATURE OF UZBEKISTAN //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. C5. – С. 62-68.
14. Гойибова Г., Турдиева К. Образ врачей в рассказе Зоира Мамаджонова «Сидящие у костра» //Научные работы одарённой молодёжи и медицина XXI века. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 355-355.